

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7829994>

Savurboev Qobilbek Xolibek o'g'li

Navoiy shahar “Profi” nodavlat universitetining
“Psixologiya pedagogika” fakulteti sirtqi ta'lim talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolamda pedagogikaning ko'pgina muammolarini hal etishda ta'lim-tarbiya sohasida orttirilgan tajribalari, ilg'or o'qituvchilar tajribasi bilan bir qatorda, oddiy o'qituvchilarning faoliyatlari, tajribalarni o'rganish jarayonida muammo, yutuq va kamchiliklar aniqlanganligi. Pedagogik tajribalami o'rganishda kuzatish, intervyu olish, anketalar tarqatish, o'quvchilarning yozma va ijodiy ishlaai, pedagogik hujjatlarni o'rganish metodlari haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lasiz.*

Kalit so'zlar: *Pedagogika, Kuzatish, Anketalar tarqatish, Maktab hujjatlarini o'rganish, Matematik metod, Tadqiqot natijalari va ularni amalda tatbiq etish.*

Pedagogikaning ko'pgina muammolarini hal etishda ta'lim-tarbiya sohasida orttirilgan tajribalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ilg'or o'qituvchilar tajribasi bilan bir qatorda, oddiy o'qituvchilarning faoliyatlari ham o'rganib boriladi. Chunki tajribalami o'rganish jarayonida muammo, yutuq va kamchiliklar aniqlanadi. Pedagogik tajribalami o'rganishda kuzatish, intervyu olish, anketalar tarqatish, o'quvchilarning yozma va ijodiy ishlaai, pedagogik hujjatiami o'rganish metodlaridan foydalaniladi.

Ma'lumki, pedagogika jamiyatning rivojlanish qonun-qoidalariga tayangan holda taraqqiy etadi. Bugungi kunda esa ana shu jarayon avj pallasiga kirdi. Inson ongi taraqqiy etmas ekan, ijtimoiy hayot jabhalarida hech bir o'zgarish sezilmaydi. Modomiki, zamon jadal sur'atlarda o'zgarayotibdimi, demale, pedagogika ham shu o'zgarishlarga hamohang bo'lmog'i darkor. Shulami nazarda tutgan holda biz ushbu darslikni sharq mutafakkirlari asarlaridan unumli foydalangan holda yaratdik

Kuzatish — o'rganish lozim bo'lgan pedagogik hodisani ma'lum maqsad nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda kuzatuvchi kuzatish bayonnomasini olib boradi. Kuzatish obyektiga oid bo'lgan aniq faktik material tayyorlanadi. Kuzatish belgilangan aniq reja asosida olib boriladi. Suhbat (fakt) dalillar to'plash yoki kuzatish davomida to'plangan materiallarga aniqlik kiritish maqsadida olib boriladi. Suhbat tadqiqotning mustaqil yoki yordamchi metodi sifatida qo'llaniladi.

Anketalar tarqatish. Bu ommaviy ravishda material to'plash maqsadida anketalar tarqatish yo'li bilan amalga oshiriladi. Tadqiqot uchun muhim bo'lmagan materiallar o'quvchilarning yozma va bir qancha fanlar bo'yicha mustaqil ishlarni bajargan daftarlarini tekshirish, o'rganib chiqish yoli bilan turlarga ajratilishi mumkin.

Maktab hujjatlarini o'rganish — o'quvchilarning shaxsiy varaqalari, metodistning to'plagan ma'lumotlari, sinf jumallari, kundaliklar, yig'ilish va majlislar bayonnomalari tadqiqoti uchun olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaning ahvoli, darajasi haqida obyektiv axborot manbai hisoblanadi. Pedagogik hodisalarni tadqiq qilish jarayonida eksperiment (sinov) muhim ahamiyat kasb etadi. Maxsus tashkil etilgan eksperiment qo'llanilayotgan yoki qo'llanishi mumkin bo'lgan u yoki bu metod va usullar samaradorligini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi.

Matematik metod. Bu metod ommaviy materiallarni tahlil qilishda (masalan, anketalar tarqatish yo'li bilan to'plangan materiallarni yoki ma'lumotlarni umumlashtirish uchun) qo'llaniladi. U eksperiment natijalarining aniq baholanishini, xulosalarning ishonchli bo'lishini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari va ularni amalda tatbiq etish. Pedagogikada bu jarayon turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Chunonchi, tadqiqotchilarning seminarlarida, ilmiy konferensiyalarda tadqiqot natijalari bo'yicha ma'ruzalar bilan chiqishi, ilmiy maqolalar, kitoblar nashr etilishi, o'qituvchiga mo'ljallangan metodik tavsiyalar bo'lishi mumkin. Pedagogikada hali hal etilmagan muammolar juda ko'p. Bular ilmiy tadqiqot olib borish yo'li bilan hal etiladi.